

## **O‘ZBEK AMALIY BEZAK SAN’ATI TARIXI VA UNI ZAMONAVIY TA’LIM ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI**

**Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna**

Qo‘qon DU Tehnologik ta’lim va  
kutubxonashunoslik kafedrası dotsenti

### **Аннотация.**

В данной статье освещаются историческое развитие узбекского декоративно-прикладного искусства, его виды, а также методика преподавания в системе современного образования и значение эстетического воспитания молодежи. Анализируются применяемые интерактивные методы и педагогические подходы.

**Ключевые слова:** узбекское прикладное искусство, декоративное искусство, ганчкорство, национальное наследие, современное образование, педагогические

### **Abstract.**

This article highlights the historical development of Uzbek decorative and applied arts, their types, teaching methodology in modern education, and the importance of aesthetic education of youth. Interactive methods and pedagogical approaches are analyzed.

**Keywords:** Uzbek applied art, decorative art, ganch carving, national heritage, modern education, pedagogical technologies, aesthetic education.

O‘zbek xalq amaliy san’ati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashxurdir. Uning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona kabi shaharlardagi har bir tarixiy obida, xar bir xalq amaliy bezak san’ati namunasi bobokolonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunli va tarixiy bebaho san’at asarlari, jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va ma’naviy merosni tashkil etadi [3]. Asrlar davomida sayqal topib, avloddan-avlodga

yetib kelayotgan madaniy va ma’naviy boyligimiz, o‘zbek milliy xalq amaliy bezak san’atining eng ko‘p rivojlangan turlari: ganchkorlik, naqqoshlik yog‘och o‘ymakorligi, kandakorli, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik kabilarning o‘ziga xos tomonlari, bajarish texnologiyasi, ustalarning xaqiqiy asl nomlari, o‘ziga xos maktablari yaratgan uslublari mana shu kungacha yetib kelmoqda [8].

Bugungi kunda mustaqilligimiz sharofati bilan mamlakatimizda xalqimizning asrlar bo‘yi yaratgan ijodiy mehnati natijasida bunyod bo‘lgan amaliy bezak san’atini ko‘z qorachig‘idek saqlash, qadrlash. Ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlar estetik didini o‘stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi [5]. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar go‘zallikka intilishga chaqirganlar [4].

Chunonchi Samarqandning eski shaxar markazi, ya’ni Registon savlat to‘kib turgan Sherdor madrasasini qurilishda. Yalangdushtiy Baxodir me’mor Abdul Jabbor oldiga xech bir narsada o‘zining ulug‘ ajdodlaridan qolishmasligini naqshlar orqali xalqqa yetkazish vazifasini qo‘ygan san’at kalitini egallagan mashhur me’mor o‘z oldiga qo‘yilgan falsafiy fikrni naqsh tili bilan xalqqa unsiz ovozda yetkaza bilgan [2]. Ganj uymakorligi san’ati asrlar davomida o‘ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san’atning eng qadimgi, o‘rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko‘zdan kechirib, o‘rganib, chiqsak bu davrlardagi ganch uymakorligi bir-biridan ancha farq qiladi. Qadimgi ganch uymakorligi xajmiy bo‘lib, realistik tasvirlar asosida ishlagan. Ularda ko‘pgina odamlar, xayvonlar qushlar tasviri ishlatilgan [4].

Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatiga ega ekanligini bilib qa’lalar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo‘lib o‘tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III asrda Tuproqqa‘laning serxasham Saroy mexmonxonalari o‘yma ganch bilan bezatilgan Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu shartnomalarda qushlar, xayvonlar, baliqlarni o‘simliksimon va geometrik shakllarning o‘yma namunalarini ko‘rish mumkin [2].

X-XI asrlarda naqqoshlik, yogoch, tosh va ganch uymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrak tasvirini aks ettiradigan naqshlar paydo bo‘ldi. XII asrda ganchkorlik san‘ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyoda topilgan ajoyib ganch uymakorligi ishlari misol bo‘la oladi [3]. Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning XIX asrning boshlarida buyuk ganch o‘ymakorlaridan Usta Murod, Usta Fuzayoil, Usta Nosir, Usta Xayom Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nurullaboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonnullo, Usta G‘ofir, Usta Ibroxim, Usta Sarvi, Usta Abdufattox va boshqalar faoliyat ko‘rsatdilar [4].

XX boshlaridagi ishlarda o‘yma devorli juda mayin uslub texnikasi paydo bo‘ldi[4].

Rangli ganchlar, bo‘yoqlar, naqsh va tasvirlar qo‘llanila boshlandi. 1913-1914 yillarda Buxoro amiri Axadxon tomonidan Saroiy Moxi Xosa qurildi.

U ganch uymakorligi bilan bezatildi. 1937 yilda Parijda «Sa‘nat va texnika hozirgi kunda» degan ko‘rgazmada ikkita «Gram pri», 2 ta kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandi [2].

1947 yilda Toshkentda me‘mor A. Muxamedshin boshchiligida Kuraniy binosi qurildi. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi.

O‘zbekistonda o‘ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud. Shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm me‘morchiligida geometrik naqshlarga keng o‘rin berilgan bo‘lib, ular boshqa viloyatlarga qaraganda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi[8]. Ayniqsa o‘simliksimon naqshlar sipral shaklida aylanma xarakatlanganligi, dinamikligi bilan farq qiladi. Ruzimat Masharipov, Karimbergan Raximov, Qaribergan Palvanov, Yusuf Xudayberganov, Bekjon

Yokubov, Odomboy Bobojanov, Odomboy Yoqubov kabilar Xorazm ganchkorlik maktab namoyondalaridandir.

O‘zbek milliy naqsh usullari quyidagilardir:

1. Geometrik naqsh.
2. Islimiy naqsh
3. Qush va xayvonlar ramzlari.

20 asr 90 yillardan naqsh ustalari ijodiy markaz va uyushmalarga birlashgan holda ijod qilmoqda. «Usta», «Musavvir», «Xunarmand» ustalari ijodi diqqatga sazovor. Naqsh keng taraqqiy etgan bo‘lib, ustalar yangi qurilayotgan inshootlarda hamda madaniy yodgorliklarning ta‘mirida faol ishtirok etmoqda. Bevosita ularning ishtirokida «Oqsaroy» qarorgoxi, Oliy majlis binosi, Temuriylar tarix davlat muzeyi, «Turkiston» konsert zali, O‘zbekiston konservatoriyasi binolari bezalgan[1].

Usta naqqoshlardan M. Turaev, A. Ilxomov, S. Maxmudov, K. Shoislomov, X. Nuraliyev, S. Shukurov va boshqalar naqsh rivojiga katta xissa qo‘shdilar. Naqsh buyumlari bilan ustalar xorij kurgazmalarida xam faol qatnashdilar. Malakali naqqosh ustalar qadimdan usta-shogird usulida tayyorlangan. Xozirgi kunda xam shu usulda naqqosh ustalar tayyorlashi saqlangan, shuningdek, maxsus ta‘lim muassasalari kasb xunar kollejlarida, badiiy markazlarda naqsh bo‘yicha xam mutaxassislar tayyorlanmoqda [7].

Zamonaviy ta‘limning tashkil etishga qo‘yiladigan muxim talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan kunikma va malakalarini hosil qilish shuningdek, ta‘lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tamonidan egallangan bilim kunikma xamda malakalar darajasini baxolash o‘qituvchidan yuksak pedagogik maxorat xamda ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi [9].

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar, interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda [6].

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli xalq etilishida yana bir omilning mavjudligi, o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari xamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvining qaror topishi muxim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi fan asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyخالashga erishish, mazkur loyxalardan oqilona foydalana olish kunikmalariga ega bulishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta chuqur o'zlashtirishi, ularda amaliy kunikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Shu boisdan xam bugungi kunda an'anaviy dars o'tish uslublari bilan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya ishlarini samarali amalga oshirishda o'qituvchining xissa va roli beqiyosdir. Chuqurroq o'ylab kurilsa o'qituvchilar jamiyatining ishonchli kishilardan sanaladi. Chunki jamiyat unga uzining kelajagi, umidini ishonib topshiradi. Anna shu umid va ishonchning mavjudligi muallimlar oldiga yuksak vazifa, mas'uliyat va talablarni qo'yadi.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1991. – 256 bet.
2. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent: “Fan”, 1982. – 312 bet.
3. Abdullayev N. San'at tarixi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2001. – 240 bet.
4. Raximov M. Ganchkorlik san'ati asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. – 180 bet.

5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2008. – 176 bet.
6. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015. – 200 bet.
7. Ishmuhamedov R.J. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Iste‘dod”, 2017. – 220 bet.
8. Sodiqov Q. O‘zbek milliy naqshlari va ularning rivoji. – Toshkent: “San‘at”, 2005. – 150 bet.
9. Yo‘ldoshev J.G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012. – 192 bet.

## **O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINI RAQAMLASHTIRISH VA UNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARINI SAQLASH**

**Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlari – maqol, topishmoq va dostonlar misolida ularning lingvomadaniy xususiyatlari hamda zamonaviy raqamlashtirish jarayonidagi muammolar va yechimlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda og‘zaki merosning milliy tafakkur va madaniyatni aks ettirishdagi o‘rni, uni audio, video va matn shaklida saqlash texnologiyalari, shuningdek, folklor korpuslarini yaratish masalalari yoritilgan. Shuningdek, dialektal xususiyatlar, variantlilik va ilmiy transkripsiya muammolari asosida autentiklikni saqlash zarurati ilmiy asosda izohlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, raqamlashtirish, lingvomadaniyat, madaniy meros, folklor, raqamli texnologiyalar, milliy qadriyatlar, lingvistik tahlil.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье анализируются лингвокультурные особенности узбекского устного народного творчества на примере пословиц,*